

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:338.48(575.1)

GULOMOVA MUSLIMA TOXIROVNA
O‘zbekistonda turizm samaradorligini oshirishda
ziyosat turizmini tashkil etish imkoniyatlari

71010403 –Turizm(Ziyosat turizmi)
mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: I.f.d prof.Abduvohidov.A

TOSHKENT 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

_____ -sonli bayonnoma "26" aprel _____ 2023 y.

Kafedra mudiri: I.A.Axmedov



imzo

05.05.2023 u.

sana

Ilmiy rahbar: A.M.Abduvohidov




imzo

05.05.2023 u.

sana

Talaba

M.T.Gulomova



imzo

05.05.2023 u.

sana

Dissertatsiya mavzusi Magistratura bo'limida 2021-yil "20" dekabr

№ 808T raqami bilan ro'yxatga olingan.

Annotatsiya

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida ziyorat turizmning milliy iqtisodiyotdagi oʻrni, Oʻzbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish xususiyatlari va ustuvor yoʻnalishlari koʻrib chiqildi. Mamlakatning ziyorat turizm sohasini rivojlantirishni ragʻbatlantirish boʻyicha chora-tadbirlar koʻrsatilgan. COVID-19 pandemiyasi kontekstida mamlakatning turizm sanoatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha chora-tadbirlarning xususiyatlari, shu jumladan transport tizimi, tadbirkorlik va mehmonxonalar sanoatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha chora-tadbirlar ochib berilgan. Pandemiya sharoitida turizm sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, uning oqibatlari turistik sanoat rivojiga taʼsirini tahlil qilishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Kalit soʻzlar: Ziyorat turizmi, ichki va tashqi turizm, ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, pandemiya, turizmni tahlil qilish.

Annotation

The role of pilgrimage tourism in the national economy, the characteristics and priority directions of the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan were considered in the following master's thesis. Measures to encourage the development of the country's pilgrimage tourism sector are indicated. Features of measures to support the country's tourism industry in the context of the COVID-19 pandemic, including measures to support the transport system, entrepreneurship and hotel industry. A lot of attention is being paid to the analysis of modern trends in the development of the tourism industry in the context of the pandemic, and the impact of its consequences on the development of the tourism industry.

Key words: Pilgrimage tourism, domestic and foreign tourism, pilgrimage sites, cultural sites, pandemic, tourism analysis.

| MUNDARIJA | |
|---|-----------|
| Annotatsiya..... | 3 |
| Mundarija..... | 4 |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati..... | 5 |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati..... | 5 |
| Keltirilgan qisqartmalar..... | 5 |
| KIRISH..... | 6 |
| Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi | 6 |
| Tadqiqot maqsadi va vazifalari..... | 9 |
| Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari | 10 |
| Tadqiqot obyekti va predmeti..... | 10 |
| Tadqiqot ilmiy yangiligi..... | 10 |
| Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 11 |
| I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI..... | 13 |
| 1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi..... | 13 |
| 1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi..... | 21 |
| 1.3 Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi..... | 28 |
| II BOB. METODOLOGIYA..... | 30 |
| 2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni..... | 30 |
| 2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar..... | 30 |
| 2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.. | 31 |
| 2.4 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar..... | 31 |
| III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR..... | 33 |
| 3.1 Ziyorat turizmining rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari..... | 33 |
| 3.2. O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmining rivojlanishi (Islom hamkorlik tashkiloti) tahlilida | 41 |
| 3.3. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning imkoniyatlari | 50 |
| 3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi | 56 |
| XULOSA..... | 69 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 71 |
| ILOVALAR..... | 75 |

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Dunyoda islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi turizm xizmatlari turlarining ko'payishi va aholi daromadlarining ortishi turizm tarmog'ida islomiy xususiyatlarga asoslangan turizmning ulushi yildan-yilga ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, "2019 yilda dunyo bo'ylab 160 mln. musulmon sayyohlar tomonidan turizm xarajatlari uchun 155 mlrd.dollar sarflangan bo'lsa, 2023 yilda mazkur xarajatlar uchun 140 mln. musulmon turistlar tomonidan ushbu yilda 137 mlrd. dollar mablag' sarflanishi prognoz qilinmoqda".¹ Keyingi o'n yillikda turizm ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining eng katta foyda keltiradigan va samarali tamroqlaridan biri bo'lishi, yangi ish o'rinlari tashkil etishi hamda aholi turmush darajasining ortishiga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Jahonda musulmon turistlarning ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida halol va islomiy turizm xizmatlarini tashkil etish va islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi zaruriy infratuzilmalarini yaratish, turizm bozorini iqtisodiy va ekonometrik omillar orqali baholish, mazkur tarmoqda ham klasterlar siyosatini amalga oshirish, islomiy tamoyillarga asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish uchun investitsiyalar kiritish va turizm sohasini raqamlashtirish sharoitida ushbu mahsulotlarni onlayn sotish va sotib olish uchun innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlardagi ilmiy muammolarni tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirishda islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, ziyorat turizmini rivojlantirish doirasida mahalliy va xalqaro aviareyslari hamda temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni

¹ <https://sesricdiag.blob.core.windows.net/sesric-site-blob/files/article>

belgilash”² nazarda tutilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ziyorat turizmini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, uni rivojlantirish uchun zarur shart- sharoitlarini yaratish, “halol” standartlariga javob beradigan turistik infratuzilmalarini tashkil etish, islomiy tamoyillarga asoslangan tartiblarni joriy etish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 maydagi PF- 6002-son “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 15 yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022 yil 18 fevraldagi PF-75-son “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda har bir sohani isloh qilish bilan birga, yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda yangilanayotgan O‘zbekiston davlatining asosiy yo‘nalishlaridan biri turizm hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakat iqtisodiyotini, aholi turmush tarzini, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday sohalardan biri turizmning “ziyorat turizmi” tarmog‘idir. Covid-19 pandemiyasi davrida barcha

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. Toshkent sh. “Xalq so‘zi”, 2020 yil 25 yanvar